

mustaqil o'qishga tayyorlanish, dam olish va har tomonlama rivojlanish sharoitlari haqida to'liq axborot bilan ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
3. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной парадигме // Ж. Педагогика. — М.: 2003. - № 10. — С.8.
4. Вербицкий А.А. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции / А.А. Вербицкий, О.Г. Ларионова М.: Логос, 2009. — 336 с.
5. Татарченкова С.С., Телешов С.В. Формирование ключевых компетентностей учащихся через проектную деятельность: Учебно-методическое пособие //— СПб.: КАРО, 2008. С. 9.
6. Профессиональная педагогика: категории, понятия, дефиниции [Текст]: сб. науч. тр. Вып. 4 / Федер. агентство по образованию; Рос. гос. проф.- пед. ун-т ; Рос. акад. образования, Ур. отд-ние , 2006. - 571 с.

OLIV TA'LIM MUASSASASIDA KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA TALABALARNI O'QITISH SHART-SHAROITLARI

Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna
O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida talabalar kredit-modul tizimi asosida tahsil olmoqdalar. Bu dastur orqali raqamli texnologiyalardan va zamonaviy o'qitish usullaridan samarali foydalanilgan holda yoshlarga raqamli savodxonligini oshirish ko'zda tutilgan. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida talabalarni o'qitish afzalliklari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, kredit, akademik mobillik, akademik qarzdorlik, GPA.

УСЛОВИЯ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПО КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ

Аннотация: Сегодня во многих высших учебных заведениях студенты обучаются по кредитно-модульной системе. Благодаря этой программе

цифровые технологии и современные методы обучения эффективно используются для повышения цифровой грамотности молодежи

Ключевые: Кредитно-модульная система, кредит, академическая мобильность, академическая задолженность, средний балл

CONDITIONS FOR TEACHING STUDENTS BASED ON THE CREDIT-MODULE SYSTEM IN A HIGHER EDUCATION INSTITUTION

Abstract: Today, in many higher education institutions, students study on the basis of the credit-module system. Through this program, digital technologies and modern teaching methods are effectively used to improve the digital literacy of young people.

Keywords: Credit-module system, credit, academic mobility, academic indebtedness

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan[2]

Yuqorida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish hamda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish maqsadida Respublika oliy ta’lim muassasalari ta’lim tizimiga kredit-modul tizimini tatbiq etilgan oliygohlardan biri 2020-yildan boshlab Navoiy Davlat Pedagogika Institutida joriy etildi. Kredit-modul tizimining joriy etilishi orqali oliy ta’lim muassasalari talabalari professor-o‘qituvchilari hamkorlikda ishlashga imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Kredit-modul o‘qitish tizimida o‘tish oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari o‘z ustida ko‘proq ishlashiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida talabaga bilim berish sifatining oshishiga olib kelmoqda.

Kredit-modul tizimi, bu– ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholashga asoslangan[4].

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25-30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. Talabalar odatda bir semestrda 30 kredit, bir o‘quv yilida 60 kredit to‘plashi belgilanadi. Semestr

davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. 1 fandan ajratilgan auditoriya soatining 25 foizidan va undan ko'p sababsiz dars qoldirgan talaba shu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi. Shu fandan kredit o'zlashtirmagan hisoblanib, talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Kredit tizimida talabalar akademik mobilligi bir oliy ta'lim muassasasidan, hamkor ikkinchi oliy ta'lim muassasasiga o'qishlarini ko'chirishni amalga oshirib kelinmoqda. Akademik mobillik - 1 haftadan 3 oygacha, uzoq – 6 oydan bir yilgacha bo'lishi mumkin. Akademik mobillikning foydali tomoni masalan, poytaxtlik talaba o'qishga topshirish vaqtida beshta ta'lim yo'nalishini belgilab, Samarqanddagi oliygohga o'qishga kirdi. Ammo u yerda o'qish uchun uning sharoiti yo'q. Mazkur vaziyatda Toshkentda joylashgan oliy ta'lim muassasasi bilan Samarqanddagi oliy ta'lim muassasasi o'rtasida akademik mobillik bo'yicha kelishuv amalga oshiriladi. Ya'ni talabaning sharoiti inobatga olinib, ota-onasi bag'rida o'qishni davom ettirishi uchun unga sharoit yaratiladi. Bunda muayyan muddat o'qiganligi haqida ma'lumotni asosiy o'qishiga taqdim etadi(transkript), tegishli fanlarni o'zlashtirgan, kreditlarni to'plagan holda asosiy oliygohda tahsilni davom ettirishi mumkin. Ikkala oliygohlar o'quv rejalarida fanlar farqi bo'lsa talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarning tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semester oliygoh tomonidan ta'til vaqtida pulli asosda tashkil etiladi. Yozgi semestrning davomiyligi akademik taqvim asosida talabalar mutaxassisliklari va kurslar bo'yicha belgilanib baholaniladilar.

Talaba kursdan kursga o'tishda bir o'quv yili hisobidan Gpa qiymati 2.5 dan yuqori olganda ko'chiriladi. Gpa o'tish balini to'play olmagan talaba kursiga qoladi, o'zlashtira olmagan fanlarini o'zlashtirish uchun shu fanlar kreditiga shartnoma mablag'lari to'lanadi.

Xulosa qilib shu aytishimiz mumkinki, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qaroriga Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida nizomga asoslangan holda Navoiy Davlat Pedagogika Instituti ham hemis dasturi orqali faoliyat yuritmoqda. Bu dasturga talabalar haqida umumiy baza shakllangan bo'lib, o'quv yuklamasida soatlar auditoriya soatlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z ichiga oladi. Talabalar o'zlarining dars javdallarini, kunlik davomatlarini, nazorat jadvallarini, dars jarayonida qo'llashlari uchun o'qituvchi tomonidan kiritilgan resurslardan foylanishlari mumkin bo'ladi. Talabalarning bilim va ko'nikmalarini ko'p bosqichli nazorat qilishning turli tizimlaridan foydalanish natijasida joriy, oraliq va yakuniy nazoratning turli xil o'zaro bog'liq vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazib, qisqa vaqtda katta sondagi talabalarning bilimini baholash imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida Nizom.
4. Zaripov L., N.Xayitov, M.Tuxtayeva Kredit-modul tizimi bo‘yicha xorij tajribasi [Matn]: metodik qo‘llanma –. – T.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024-y. – 32 b.
5. Sherzod Mustafoqulov, Mansur Sultonov.,Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik“.Xalq so‘zi (5 avgust 2020). 2023-yil 18-mayda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 17-sentyabr.